

**Islohotlar fonida Tezkor - qidiruv faoliyati konstitutsiyaviy
prinsiplariga kiritilishi lozim bo'lgan qo'shimchalar**

Yakubov Xushnudbek Sheribayevich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi katta o'qituvchisi.

xushnud6982@gmail.com.

Abduqahhorov Jalol Nodir o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mezkor-qidiruv faoliyatining prinsiplari kelib chiqish tarixi, ularning sharhi, mezkor-qidiruv faoliyatida qo'llanilishi, ularni qo'llashning ahamiyati, konstitutsiyaviy prinsiplar tushunchasi, yangi tahrirdagi Konstitutsiya va qonunlarning qabul qilinishi natijasida ularni tushunishdagi zamonaviy yondashuv har jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: prinsip, Tezkor-qidiruv faoliyatining prinsiplari, konstitutsiya, qonun, konstitutsiyaviy prinsiplar, qonuniylik, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi.

Новости, которые следует включить в конституционные принципы оперативно-розыскной деятельности на фоне реформ

Аннотация: В данной статье всесторонне проанализирована история возникновения принципов оперативно-розыскной деятельности, их толкование, применение в оперативно-розыскной деятельности, значение их применения, понятие конституционных принципов, современный подход к их пониманию в результате принятия Конституции и законов в новой редакции.

Ключевые слова: принцип, принципы оперативно-розыскной деятельности, Конституция, закон, конституционные принципы, законность, приоритет прав, свобод и законных интересов человека.

News that should be included in the constitutional principles of

operational investigative activities against the background of reforms

Annotation: this article analyzes in every way the history of the origin of the principles of fast-search activity, their interpretation, application in fast-search activities, the importance of their application, the concept of constitutional principles, the modern approach to their understanding as a result of the adoption of the Constitution.

Keywords: principle, principles of operational-search activity, Constitution, Law, constitutional principles, legitimacy, human rights, freedoms and the rule of lawful interests.

So'nggi yillarda yurtimizda keng islohotlar amalga oshirilib hayotimizning barcha jabhalarida ko'zga tashlanmoqda. Ayniqsa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2023-yil 30-aprel kuni referendum asosida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yangi tahrirda qabul qilinishi, bu Konstitutsiyada fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari yanada mustahkamlanishi e'tiborni tortadi. Bu o'zgarishlar natijasida "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonunida keltirilgan Tezkor-qidiruv faoliyati(TQF)ning prinsiplariga nisbatan yangicha yondashuv lozim bo'ladi.

Tezkor-qidiruv faoliyati - qonun bilan maxsus vakolat berilgan davlat organlarining tezkor bo'linmalari tomonidan tezkor-qidiruv tadbirdari o'tkazish orqali inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki himoya qilinishini, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini taminlash, jinoyatlarning oldini olish, ularni aniqlash, ularga barham berish va ularni fosh etish, shuningdek jinoyatlarni tayyorlash va sodir etishga daxldor shaxslarni aniqlash, surishtiruv, tergov organlaridan va suddan yashirinib yurgan, jinoiy jazodan bo'yin tovlayotgan shaxslarni, bedarak yo'qolgan shaxslar va boshqa shaxslarni qidirishni amalga oshirish, tanib olinmagan murdalarning shaxsini aniqlash, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligiga tahdid solayotgan

Modern education and development

shaxslar, hodisalar, harakatlar(harakatsizlik) haqida axborot to'plash faoliyatidir¹.

Tezkor-qidiruv faoliyatining prinsip(*lotincha principium* - asos, negiz, ibtidolari deganda, qonun va qonunchilik hujjatlarida qayd qilingan, tezkor-qidiruv amaliyotida ishlab chiqilgan, jamiyatning tezkor-qidiruv kuchlari, vositalari va tezkor-qidiruv tadbirlarini qo'llashni tashkil qilish va o'tkazish taktikasi haqidagi rahbariy g'oyalari, asosiy holatlari va ma'naviy tasavvurlarini tushunamiz.

Tezkor-qidiruv faoliyati prinsiplari bevosita tezkor-qidiruv faoliyati vujudga kelgan vaqtida shakllangan deyish mumkin. Bir qator soha olimlari tezkor-qidiruv faoliyatini davlatchilik vujudga kelgan davrda paydo bo'lgan degan fikrlarni olg'a surishadi. Hozirgi Suriya davlati hududida olib borilgan arxeologik qazilmalari natijasida miloddan avvalgi VII asrga tegishli bo'lgan yog'och taxta bo'lakchasi topilgan. Unda kuydirish yo'li bilan bitilgan eski yozuvlar borligi aniqlangan bo'lib, taxtachaga bir qadimiy davlat hukmdorining boshqa davlat hukmdoriga "*men sening ayg'oqchilaringni ushlab, kelishivumizga binoan qo'yib yubordim, lekin ularning evaziga senda hanuzgacha haq olmadim*" degan murojaati yozilgan ekan[5]. Miloddan avvalgi VI-V asrlarda yashab o'tgan Xitoy mutaffakkiri va sarkardasi Sun Szi o'zining urush haqidagi "Urush san'ati" asarida josuslarga alohida bob ajratib, ularni 5 toifaga bo'lgan va ulardan foydalanish haqidagi fikrlarini bildirgan va aynan mana shu fikrlarda dastlabki tezkor-qidiruv faoliyatining eng qadiniy prinsiplarini yoritgan².

Amir Temurning maxfiy xizmati haqida uning zamondoshi Ibn Arabshoh: "U yerlarining barcha tomonlariga o'z ayg'oqchilarini tarqatib, qolgan mulklariga esa osuslar qo'ygan edi. Josuslar chor-atrofda bo'layotgan hodisalar va ularning xabarlarini Temurga yetkazib, manzilu shaharlarni tavsiflardirlar. Ularning tekis

¹ Худойбердиев, А. А., & Машарипов, А. Э. (2022). Оммавий тадбирларни ўтказилишида ички ишлар органлари томонидан жамоат тартибини сақлашни маъмурий ҳуқуқий жихатдан такомиллаштириш. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 2(10 Special Issue), 134-140.

² Якубов, Х. Ш. (2023). Психологические особенности оперативно-розыскного—мероприятия «опрос». образование наука и инновационные идеи в мире, 25(2), 45-48.

va notekis joylarining suratini keltirib, uylari va diyorlari o'rinalarini chizib ko'rsatardilar.... Natijada Temur o'z fikri bilan shu narsalarni yaqqol ko'rib, tafakkuri vositasida o'z yerlari bilan birga xorij joylar ustidan ham tasarruf yuritardi" deb yozgan edi[7]. Shuningdek Amir Temur ushbu ayg'oqchilarni va unga xabar yetkazib beruvchi xabarchilarni mamlakatning qaysi hududida bo'lishidan qat'iy nazar barcha kerakli narsalar bilan ta'minlash haqida buyruq bergen va bu tezkor-qidiruv faoliyatining dastlabki qonuniylashtirilishiga misol bo'la oladi.

XVIII-XIX asrlarga kelib ko'pchilik G'arb davlatlarida jinoyatchilik ko'rsatkichi keskin ko'tarilib ketadi va ularnga qarshi kurashning eski usullari o'z samarasini yo'qotadi. Shu sababdan bu sohada maxsus choralar qo'llash zaruriyati paydo bo'ldi. Jinoyatchilikka qarshi kurashda maxsus choralar qo'llash asoschisi Parij maxfiy politsiyasi boshlig'i Ejen Fransua Vidok bo'lган. Aynan Vidok bir qator tezkor-qidiruv tadbiralarini bu sohada ilk bor qo'llagan³. Yurtimiz hududida bu choralar chor Rossiysi davrida 1908-yil 6-iyulda Rossiyada qabul qilingan qonun asosida vujudga kelgan deyishimiz mumkin. Aynan man shu qonun asosida Imperianing barcha guberniyalarida va yirik shaharlari politsiya muassasalari tarkibida maxsus qidiruv qismlari tashkil etiladi. 1910-yil 9-avgustda Ichki ishlar vaziri etib tayinlangan A.P.Stolipin rahbarligida maxsus qidiruv qismlari faoliyatini tartibga soluvchi Yo'riqnomalar ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Unga ko'ra bunday bo'linmalar tomonidan jinoyatlarga qarshi kurashda maxfiy ish usullarini qo'llash ularning asosiy vazifalari qatoriga kiritildi[9].

Tezkor-qidiruv bo'linmalarining sobiq sovet davridagi faoliyati 1917- yil oktabrdagi inqilob bilan bog'liq bo'lib, dastlabki bosqichlarda Chor hukumatining huquqni muhofaza qilish tizimini butunlay yangilash maqsadida 1917-yil 7-dekabrda F.E.Derjinskiy rahbarligida Butunrossiya favqulodda komissiyasi tashkil etildi. Ushbu tuzilmaga nafaqat aksilinqilobiy kuchlar bilan, balki alohida

³ Masharipov, T. (2022). Organizing a quick search to prevent crimes related to corruption. *Science and Innovation*, 1(7), 295-302.

xavfli jinoyatlarga qarshi kurashish vazifasi yuklatildi.

Jinoyatchilikka qarshi samarali kurash olib borish uchun yaxshi tashkillashtirilgan maxfiy kuchlar, vositalar va usullarni qo'llashni tartibga soluvchi normativ-huquqqiy hujjatlar ishlab chiqish zaruriyati mavjud edi. Shu sababdan mazkur faoliyatni tartibga soluvchi nizomlar va yo'riqnomalar ishlab chiqilib amaliyotga joriy etildi. mazkur faoliyatni huquqiy tartibga solishda 1918-yil iyunda bo'lib o'tgan Butunrossiya favqulodda komissiyasining birinchi anjumani muhim bo'ldi. Unda qabul qilingan "Olib-sotarlikka qarshi kurashish bo'yicha Yo'riqnomasi" mazkur sohadanooshkora kuchlar, vositalar va usullarni keng ko'lamda qo'llashga huquqiy zamin yaratdi.

Banditizm, o'grilik va boshqa og'ir jinoyatlarning keng miqyosda o'sihiga qarshi tura oladigan professional xizmat tuzish maqsadida 1918-yilning 5-oktabr kuni Militsiya Bosh boshqarmasi tarkibida tashkil etilgan Jinoyat-qidiruv markaziy bo'linmasi(Центророзыск) ichki ishlar organlari tizimida jinoyatchilikka qarshi kurashda maxsus razvedik usullarini qo'llovchi ilk xizmat sifatida tarixga kirdi. Ushbu qonunlar va yo'riqnomalar Tezkor-qidiruv faoliyati prinsiplarining dastlabki qonunlarda aks etishi bo'ldi⁴.

Shunday bo'lsada, bir qator olimlar tomonidan mazkur faoliyatning nazariyasini ishlab chiqilishi va shakllanishida muhim ro'l o'ynashdi. Xususan, 50-yillar o'rtalarida A.G.Lekar o'z predmetiga ega bo'lgan mustaqil Tezkor-qidiruv faoliyati o'quv kursi mavjudligi haqida xulosaga keldi. U faoliyatning dastlabki tushunchalari, toifalarini ishlab chiqib, kelgusida Tezkor-qidiruv faoliyati nazariyasi muammolarini ishlab chiqilishiga muhim nazariy poydevor qo'ydi.

1959-yilda O'zbekiston respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi qabul qilinishi va unda surishtiruv organlari tomonidan tezkor-qidiruv choralarini qo'llash imkoniyati aks ettirilishi bilan ilk marta Tezkor-qidiruv faoliyatining jinoyatchilikka qarshi kurashdagi davlat-huquqiy funksiyasi tan olindi. Ya'ni,

⁴ Якубов Х. и Рахмонжонов Х. (2022). Диний экстремизм ва терроризм таҳдииди. Общество и инновации , 3 (2/C), 246-251.

ishonch bilan aytish mumkinki, mazkur jinoyat-protsessual qonuni Tezkor-qidiruv faoliyatiga qonuniy tus berdi va uning huquqiy asoslarini yaratdi. Ammo uning nazariy jihatdan rivojlanishi bir muncha qiyin kechdi. Bunga sabab Tezkor-qidiruv faoliyati dastlabki davrda boshqa fanlar bazasida rivojlangani bo'ldi. Mustaqillik yillarida kelib yurtimizda Tezkor-qidiruv faoliyatining rivojlanishida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida faoliyat olib borgan tadqiqotchi olimlarning o'rni juda katta bo'ldi⁵.

Jumladan, Y.S.Po'latov giyohvandlikka qarshi kurashda tezkor-qidiruv imkoniyatlaridan foydalanish muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlar o'tkazdi.

T.R.Saitbayev ichki ishlar organlarida maxsus ishlarni tashkil etishning nazariy va huquqiy asoslarini takomillashtirish borasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordi.

V.Karimov tomonidan Tezkor-qidiruv faoliyatida inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarni himoyalash, shuningdek tezkor-qidiruv tadbirlari jarayonida qonuniylikni ta'minlash muammolariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Shu tariqa Tezkor-qidiruv faoliyatining zamonaviy ko'rinishi shakllantirildi.

"Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonunning **5-moddasida** "Tezkor-qidiruv faoliyatining asosiy prinsiplari qonuniylik, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi, konspiratsiyadan, oshkora va nooshkora usullar uyg'unligidan iborat."

Yuqoridagi qonunda keltirilganlar prinsiplar Tezkor-qidiruv faoliyatining huquqiy prinsiplari deya e'tirof etiladi va ular konstitutsiyaviy(umumhuquqiy) prinsiplar va sohaviy(maxsus) prinsiplarga bo'linadi.

Konstitutsiyaviy(umumhuquqiy) prinsiplar - bu barcha huquqni qo'riqlash tizimi uchun rahbariy g'oyalar bo'lib, ularga: 1) qonuniylik; 2) inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi prinsiplari kiradi. Ushbu ikki

⁵ Ашурев, О. (2024). Фирибгарлик жиноятини аниқлаш ва фош этишнинг назарий тушунчалари!. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 4(1), 61-69.

prinsipning konstitutsiyaviy deb atalishiga sabab, ular konstitutsiyadagi mavjud normalarga asoslanadi. Bu prinsiplarning ikkinchi nomi umumhuquqiy deb nomlanishi esa barcha huquq sohalarida qo'llanilishi va barcha huquq sohalari uchun birdek ahamiyatga ega ekanligidir⁶.

"Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonunning **6-moddasi**.

Qonuniylik prinsipi deb ataladi va unda:

"Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar hamda ularning xodimlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujatlari talablariga aniq rioya qilishi va ularni bajarishi shart.

Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirishda qonunchilikka aniq rioya qilishdan hamda ularni ijro etishdan chekinish qonuniylikni buzish hisoblanadi va belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi." keltirib o'tilgan.

Ushbu moddani sharhiga e'tibor beradigan bo'lsak, avvalo tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarni bilishimiz lozim bo'ladi. Bular ushbu qonunning **10-moddasida** keltirilgan organlar bo'lib, O'zbekiston Respublikasi hududida tezkor-qidiruv faoliyatini:

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining;

O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining;

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy razvedkasining;

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining;

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish Departamentining;

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining organlari amalga oshiradi.

Ushbu prinsipda yuqoridagi organlar va ularning mazkur faoliyat bilan shug'ullanuvchi xodimlari tezkor qidiruv faoliyatini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, ushbu Qonun(ya'ni "Tezkor qidiruv

⁶ Машарипов, Т. Э. Коррупция билан боғлиқ жиноятларнинг олдини олиш бўйича ўтказиладиган тезкор-қидирув тадбирларини ташкил этиш.

faoliyati to'g'risida"gi qonun) va boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etishlari va ularni bajarishlari shartligi belgilangan. Qonuniylik tushunchasi ikki jihatdan iborat bo'lib: 1) sodir etilgan huquqbazarlik uchun jazo muqarrarligini ta'minlash; 2) fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hisoblanadi. Bunda ushbu ikki jihatdan birortasiga afzallik berib bo'lmaydi va ularga ongli ravishda baravar e'tibor qaratish, tenglashtirish talab etiladi. Basharti, ulardan biriga afzallik berilsa va faoliyatda asosiy e'tibor qaratilsa, huquqni muhofaza qiluvchi organlar vazifalari, funksiyalari izdan chiqadi hamda fuqarolarning qonuniy manfaatlariga zid ravishda faoliyat yurita boshlanadi. Bu holda jazosizlik, nazoratsizlik muhiti paydo bo'lishiga za'min yaratilishi mumkin. Ya'ni qonuniylik tushunchasining birinchi jihatiga keragidan ortiqroq e'tibor qaratilsa, huquqni muhofaza qiluvchi organlar barcha huquqbazarliklarni muqarrar jazolash uchun o'zлari qonunga hilof ishlarni amalga oshirishlari mumkin bo'ladi va bu o'z o'zidan qonuniylik prinsipining amaldan qoldirilishini bildiradi. Ikkinci jihatga haddan tashqari e'tibor beriladigan bo'lsa, huquqbazarlarga nisbatan yetarlcha ta'sirga ega bo'lgan jazolarni qo'llash imkoniyatini pasaytirib yuboradi, bu esa jamiyatda tartibsizliklar, huquqbazarlik va jinoyatlar ko'payishi va chuqur ildiz otishiga sharoit yaratib beradi. Shu sababli ham bu ikki jihatga doimo birdek e'tibor qaratish va ularga nisbatan "oltin oraliq"da harakat qilish lozim bo'ladi⁷.

Qonuniylik jamiyat hayotiga qaysi jihat bilan bog'langan bo'lsa, uning prinsiplariga huquqiy tartib xususiyati sifatida qaralgan. Qonuniylikning prinsiplari qonuniylikning yagonaligi, ustuvorligi, shaxsning huquq va erkinliklari kafolati, qonunbazarlik uchun jazo muqarrarligi, qonuniylikni maqsadga muvofiqlikka qarshi qo'yilmasligi asosiy o'rinni tutadi. Qonuniylikning yagonaligi - mamlakatimiz hududida uning prinsiplariga rioya etilishi tushuniladi. Qonunning ustuvorligi - uning ahamiyati bilan bog'liq qonuniylikning muhim

⁷ Ашурев, О. У. (2022). Интернет орқали ёшлар орасида экстремистик ғоялар тарқалишининг салбий оқибатлари!. *Journal of innovations in scientific and educational research*, 5(4), 240-247.

xususiyati bo'lib, Konstitutsiyada mustahkamlangan normativ - huquqiy hujjatlar majmuidagi oliy maqomini ifoda etadi.

"Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonunning **7-moddasi. Inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi prinsipi** deb ataladi va unda:

"Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar hamda ularning xodimlari tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etishi shart.

Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar hamda ularning xodimlari tomonidan inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilgan taqdirda, mazkur organlar hamda ularning rahbarlari ushbu huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarni tiklash, yetkazilgan zararning o'rnini qoplash hamda aybdorlarni belgilangan tartibda javobgarlikka tortish choralarini ko'rishi shart.

Tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish natijasida olingan, jinoyat yoki boshqa huquqbazarlik sodir etish bilan bog'liq bo'limgan axbrotdan inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini cheklash uchun foydalaniishi mumkin emas.

Hech kim qynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumki emas.

Insonning shaxsy hayoti holatlariga oid ma'lumotlarning oshkor etilishiga olib keladigan, unng hayotini, sog'lig'ini xavf ostiga qo'yadigan, sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadigan harakatlarni amalga oshirish taqiqlanadi."

Ushbu prinsip tezkor-qidiruv faoliyatining asosiy konstitutsiyaviy prinsipi sifatida inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, ularning boshqa ijtimoiy qadriyatlarga nisbatan dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu prinsip qonunga bo'ysunuvchi fuqarolarga, balki jinoiy harakatlari bilan o'zlarini jamiyatga qarshi qo'yib, tezkor-qidiruv faoliyati obyektlariga aylangan unsurlarga ham bir xilda amal qiladi.

Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning tezkor bo'linmalari xodimlari, tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariiga rioya etishlari ularning majburiyatlari hisoblanadi. "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida" gi qonunda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlariga daxl qiladigan tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishning tartibi, asoslari va shartari belgilab qo'yilgan ("Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida" gi qonunning 14-16-moddalari).

Tezkor-qidiruv qonunchiligidagi inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi, ularga rioya etilishi shartligi qayd etilgan bo'lib, shuningdek alohida hollarda bunday huquqlar va erkinliklar qonunda belgilangan tartibda yoki hollarda chekhanishi mumkinligi o'z aksini topgan. Bunday talab Konstitutsiyaning tegishli normalarida ham mavjud.

Tezkor-qidiruv qonunchiligidagi fuqarolarning yozishmalar, telefon orqali so'zlashuvlar va boshqa so'zlashuvlar, pochta jo'natmalari, telegraf xabarlari hamda aloqa tarmoqlari orqali uzatiladigan boshqa xabarlar sir saqlanishi huquqlarini, shuningdek uy-joy daxlsizligi huquqini cheklovchi tezkor-qidiruv tadbirlari o'tkazilishiga prokuror sanksiyasi asosida yo'l qo'yilishi belgilangan. Bunda, "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida" gi qonunning 21-moddasiga muvofiq, prokurorga tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ rahbari tezkor-qidiruv tadbirlari o'tkazilishi zarurligi yuzasidan asoslantirilgan qaror taqdim etishi lozim. Ushbu qaromi ko'rib chiqish natijasida tegishli tezkor-qidiruv tadbirlari o'tkazilishiga ruxsat berish yoxud asoslantirilgan holda buni rad etish masalasi hal qilinadi⁸.

Insonning mulkiy va u bilan bog'liq shaxsiy nomulkiy munosabatlari, undan olib qo'yilishi mumkin bo'lмаган huquq va erkinliklari va boshqa nomoddiy ne'matlari fuqarolik qonun hujjatlarida himoya qilinganligini inobatga olib, ularni himoya qilish usullari fuqarolik huquqi normalarining talablaridan

⁸ Машарипов, Т., & Ишниёзова, С. (2024). Ёшлар орасида экстремизмга қарши иммунитетни шакллантириш. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 4(5), 107-113.

kelib chiqib tanlanadi. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar huquqlari va erkinliklarini buzuvchi harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilsh to'g'risida" gi qonun ham ana shunga qaratilgan. Ushbu qonunning 7-moddasida fuqaroning davlat organlari, korxona, muassasa, tashkilot, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini o'zi bshqarish organlari, mansabdar shaxslari harakatlari(qarorlari) ustidan shikoyati sud tomonidan fuqarolik sudlovi qoidalari bo'yicha ko'rib chiqilishi ta'kidlangan.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligiga muvofiq fuqar yoki yuridik shaxsga davlat organlari yoxud ularning mansabdar shaxslarining qonunga xilof harakatlari(harakatsizlogi) natijasida yetkazilgan zarar qoplanishi lozim. Ushbu norma ko'rsatmalaridan kelib chiqib, faqat qonunga xilof harakatlar tufayli yetkazilgan zaragina qoplanishi lozim bo'ladi. "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida" gi qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar normalari talablariga muvofiq o'tkaziladigan qonuniy harakatlar esa yetkazilgan zararning qoplanishiga sabab bo'lmaydi.

Shaxsning huquq va erkinliklari hamda inson huquqlari va erkinliklari kafolati prinsiplari huquqda markaziy o'rin egallashi bilan birga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-35 va 54-58-moddalarida o'z aksini topgan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoyasi bo'yicha bir qancha yangi konstitutiyaviy normalar kiritildi⁹. Bular jumlasiga **27-moddada** "...Hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko'ra yo'l qo'yiladi. Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas.

Shaxsni ushslash chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart."

29-moddada "... Guman qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi ayblovning mohiyati va asoslari to'g'risida xabardor qilinish, unga qarshi yoki

⁹ Ashurov, O. (2024). Voyaga yetmaganlar orasida giyohvandlikka qarshi kurashishning dolzarb ahamiyati. *Академические исследования в современной науке*, 3(18), 27-32.

uning foydasiga guvohlik berayotgan shaxslarning so'roq qilnishini talab etish, tarjimon yordamidan foydalanish huquqiga ega.

Qonunni buzgan holda olingen dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog'ida foydalanishga yo'l qo'yilmaydi."

31-moddada "... Har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega."

55-moddada "Har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli.

...Har kim O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqli.

Har kim davlat organlarining yoxud ular mansabdon shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararning o'rni davlat tomonidan qoplanishi huquqiga ega."

Yuqorida ko'rib o'tganimiz mamlakatimiz Konstitutsiyasiga kiritilgan yangi normalar va tinimsiz ravishda rivojlanib borayotgan zamon shundan darak beradiki, endilikda bizda ba'zi qonun va qonunosti normalariga kichik o'zgartirishlar yoki qo'shimchalar kiritish ehtiyoji tug'ilmoqda. Shunday sohalardan biri albatta tezkor-qidiruv faoliyatidir.

Hozirgi kunda yurtimizda keng islohotlar davri ketmoqda va butun dunyo nigohi fuqarolik jamiyati tomon jadal ketayotgan O'zbekistonga qaratilgan shunday sharoitda barcha sohalarda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish eng ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi "Tezkor-qidiruv faoliyatini to'g'risida"gi qonuniga **7¹-modda sifatida "Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirishda holislik prinsipi"** prinsipini kiritish lozim deb hisoblaymiz.

"Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar shaxslarning

harakatlariga har qanday holatda obyektiv baho berishlari lozim.

Shaxsning aybdor yoki aybsiz ekanligi faqat sud tomonidan qonuniy tartibda sud majlisida ko'rib chiqilganidagina hal qilinadi.” degan mazmundagi yangi norma kiritilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu prinsip qabul qilinsa tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar xodimlarining faoliyatini amalga oshirish davomida biryoqlama harakat qilishining oldi olinadi va shu orqali mamlakatda qonuniylikni mustahkamlanadi¹⁰.

Shuningdek, “**Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida**”gi qonunning 7-moddasi. **Inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi** prinsipining uchinchi xatboshisi ya’ni “...Tezkor-qidiruv tadbirlarini o’tkazish natijasida olingan, jinoyat yoki boshqa huquqbuzarlik sodir etish bilan bog’liq bo’lмаган axbrotdan inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini cheklash uchun foydalanilishi mumkin emas.”dan keyingi xatboshisidan yangi tahrirdagi O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining **31-moddadasining** uchinchi xatboshisida keltirilgan norma ya’ni “....*Fuqarolarning shaxsiga doir qonunga xilof yo'l bilan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmagan xolda to‘plangan ma'lumotlar yo'q qilinishi kerak*” kiritilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu normaning ushbu qonunda aks ettirilishi orqali fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini yanada mustahkamlagan va ularning huquqiy ongini rivojlantirishga hissa qo’shgan bo’lamiz.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Худойбердиев, А. А., & Машарипов, А. Э. (2022). Оммавий тадбирларни ўтказилишида ички ишлар органлари томонидан жамоат тартибини сақлашни маъмурий ҳуқуқий жихатдан такомиллаштириш. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 2(10 Special Issue), 134-140.

¹⁰ Ашурев, О. (2024). Ички ишлар органлари тезкор бўлинмалари томонидан фирибгарлик жиноятига қарши курашишда тезкор-қидирув тавсифининг илмий таҳлилини аҳамияти. *Журнал академических исследований нового Узбекистана*, 1(5), 184-191.

2. Якубов, Х. Ш. (2023). Психологические особенности оперативно-розыскного мероприятия «опрос». *образование наука и инновационные идеи в мире*, 25(2), 45-48.
3. Masharipov, T. (2022). Organizing a quick search to prevent crimes related to corruption. *Science and Innovation*, 1(7), 295-302.
4. Якубов Х. и Рахмонжонов Х. (2022). Диний экстремизм ва терроризм таҳдииди. *Общество и инновации*, 3 (2/C), 246-251.
5. Ашурев, О. (2024). Фирибгарлик жиноятини аниқлаш ва фош этишнинг назарий тушунчалари!. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 4(1), 61-69.
6. Машарипов, Т. Э. Коррупция билан боғлиқ жиноятларнинг олдини олиш бўйича ўтказиладиган тезкор-қидирув тадбирларини ташкил этиш.
7. Ашурев, О. У. (2022). Интернет орқали ёшлар орасида экстремистик ғоялар тарқалишининг салбий оқибатлари!. *Journal of innovations in scientific and educational research*, 5(4), 240-247.
8. Машарипов, Т., & Ишниёзова, С. (2024). Ёшлар орасида экстремизмга қарши иммунитетни шакллантириш. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 4(5), 107-113.
9. Ashurov, O. (2024). Voyaga yetmaganlar orasida giyohvandlikka qarshi kurashishning dolzARB ahamiyati. *Академические исследования в современной науке*, 3(18), 27-32.
10. Ашурев, О. (2024). Ички ишлар органлари тезкор бўлинмалари томонидан фирибгарлик жиноятига қарши курашишда тезкор-қидирув тавсифининг илмий таҳлилини ахамияти. *Журнал академических исследований нового Узбекистана*, 1(5), 184-191.